

**Dilfuza Islomovna Mamurova, professor**

**Mirshodjon Nusratovich Mahmudov, o'qituvchi**

**Durdona Qahhorovna Rajabova, talaba**

**Kamola Hayotjon qizi Qoirova, talaba**

Buxoro davlat pedagogika instituti

**Annotatsiya.** Maqolada bugungi kunda ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, o'quvchilarning ijodiy salohiyatini yuksaltirish, ularni mustaqil fikrlashga undash kabi maqsadlar pedagogik faoliyatning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib borishi haqida fikr yuritilgan. Ayniqsa, tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi bo'yicha olib borilayotgan zamonaviy izlanishlar va tajribalar ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada tasviriy san'at darslarini tashkil etishda zamonaviy metodlar, innovatsion texnologiyalar va interfaol yondashuvlarning o'rni chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot muammosi sifatida o'quvchilarning estetik tafakkurini shakllantirishda metodik mashg'ulotlarning o'rni va ularning samaradorlik darajasini belgilovchi omillar ko'rib chiqildi. Maqolada tadqiqot metodlari sifatida tahlil, so'rovnomalar, tajriba darslari, kuzatuv kabi usullar qo'llanildi. Olingan natijalar zamonaviy metodlardan foydalanish o'quvchilarni darslarga jalb qilishda, ularning ijodiy faoliyatini oshirishda yuqori samaraga ega ekanini ko'rsatdi. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darslarning vizuallashtirishiga, didaktik jihatdan boyishiga va o'quvchilar faol ishtirokiga olib kelishi aniqlashtirildi. Tadqiqot natijalari o'qituvchilarning kasbiy mahorati, innovatsion yondashuvlarga tayyorligi ta'lim samaradorligining muhim sharti ekanligini isbotlaydi. Muallif tomonidan aniq xulosa va tavsiyalar shakllantirilib, ularning amaliyotga joriy etilishi bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** Tasviriy san'at, metodik mashg'ulotlar, zamonaviy ta'lim, innovatsion metodlar, interaktiv yondashuv, raqamli texnologiyalar, ijodiy qobiliyat, o'quvchilar faolligi, san'at ta'limi, pedagogik mahorat.

**Аннотация.** В статье рассматривается тот факт, что сегодня цели повышения эффективности образовательного процесса, активизации

## FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VOLUME-2, ISSUE-4

творческого потенциала учащихся, побуждения их к самостоятельному мышлению являются одними из основных направлений педагогической деятельности. В частности, современные исследования и эксперименты по методике преподавания изобразительного искусства имеют большое значение в повышении качества образования. В данной статье глубоко проанализирована роль современных методов, инновационных технологий и интерактивных подходов в организации уроков изобразительного искусства. В качестве проблемы исследования рассматривалась роль методических упражнений в формировании эстетического мышления учащихся и факторы, определяющие уровень их эффективности. В статье в качестве методов исследования использовались такие методы, как анализ, анкетирование, экспериментальные уроки, наблюдение. Полученные результаты показали, что использование современных методов является высокоэффективным для привлечения учащихся к урокам и повышения их творческой активности. Также было определено, что использование информационно-коммуникационных технологий приводит к визуализации уроков, дидактически обогащает их и активному участию учащихся. Результаты исследования доказывают, что профессиональное мастерство учителей, их готовность к инновационным подходам являются важным условием эффективности образования. Автором сформулированы четкие выводы и рекомендации, а также выдвинуты предложения по их внедрению в практику.

**Ключевые слова:** Изобразительное искусство, методические упражнения, современное образование, инновационные методы, интерактивный подход, цифровые технологии, творческие способности, активность учащихся, художественное образование, педагогическое мастерство.

**Abstract.** The article discusses the fact that today the goals of increasing the efficiency of the educational process, enhancing the creative potential of students, and encouraging them to think independently are one of the main directions of pedagogical activity. In particular, modern research and experiments on the methodology of teaching fine arts are of great importance in improving the quality of education. This article deeply analyzes the role of modern methods, innovative technologies, and interactive approaches in organizing fine arts lessons. The research problem considered the role of methodological exercises in the formation of students' aesthetic thinking and the factors determining their level of effectiveness. The article used methods such as analysis, questionnaires, experimental lessons, and observation as research methods. The results obtained showed that the use of modern methods is highly effective in attracting students to lessons and increasing their creative activity. It was also

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
VOLUME-2, ISSUE-4**

determined that the use of information and communication technologies leads to the visualization of lessons, didactically enriching them and the active participation of students. The results of the study prove that the professional skills of teachers and their readiness for innovative approaches are an important condition for the effectiveness of education. The author formulated clear conclusions and recommendations, and put forward proposals for their implementation in practice.

**Keywords:** Fine arts, methodological exercises, modern education, innovative methods, interactive approach, digital technologies, creative abilities, student activity, art education, pedagogical skills.

**KIRISH.** Zamonaviy jamiyatda ta'lim sohasida sodir bo'layotgan o'zgarishlar o'qituvchilardan yangicha metodik yondashuvlarni qo'llashni, o'quvchilarning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur sharoitlar yaratishni talab etmoqda. Tasviriy san'at fani estetik did, ijodiy tafakkur, san'atga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu fan orqali o'quvchilar tabiat, jamiyat va inson hayoti haqida estetik tasavvurlar hosil qiladi. Shuningdek, ularning mushohada yuritish, his qilish va o'z tasavvurini rasm, haykal, grafik shakllarda ifodalash qobiliyati rivojlanadi. Ammo ta'lim jarayonida ushbu imkoniyatlarni to'liq ochib berish uchun o'qituvchilar ilg'or metodik yondashuvlardan foydalanishi lozim. An'anaviy dars uslublarining yetarli bo'lmaganligi, o'quvchilarning san'atga bo'lgan qiziqishining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, ushbu maqolada zamonaviy metodik yondashuvlar – interaktiv metodlar, loyiha asosida ta'lim, AKTdan foydalanish kabi yangiliklarning samaradorligi o'rganildi. Metodik mashg'ulotlarda ilg'or va zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish orqali o'quvchilarning estetik qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Shuningdek, zamonaviy metodlarning amaliy samarasi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ijodiy hamkorlikni shakllantirishga qo'shgan hissi ham tahlil qilinadi.

Shu bilan birga, tasviriy san'at o'qituvchilari oldida ta'limni individual yondashuvlar asosida tashkil etish, har bir o'quvchining qobiliyatini aniqlash va uni rivojlantirish vazifalari turibdi. O'quvchilarning tasviriy faoliyatga bo'lgan munosabatini o'zgartirish, ularni mustaqil fikrlashga undovchi usullarni qo'llash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Tasviriy san'at – bu nafaqat rasm chizish balki, ongli idrok, badiiy tafakkur, estetik tarbiya vositasi hamdir. Fan orqali o'quvchilarda tabiatga, jamiyatga, san'atga nisbatan estetik va ma'naviy munosabat shakllanadi. Bunda o'qituvchining pedagogik mahorati, metodik bilim va ko'nikmalari, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish salohiyati muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda ta'lim

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
VOLUME-2, ISSUE-4**

tizimida AKT vositalarining keng joriy etilishi tasviriy san'at faniga yangicha yondashishni taqozo qilmoqda. Shuningdek, san'at ta'limida o'quvchining shaxsiy tajribasi, tasavvuri va ijodiy qarashlari asosida o'rganish jarayonini yo'lga qo'yish zarurati ortmoqda. Bugungi kunda darslarni interaktiv mashg'ulotlar asosida tashkil etish orqali bilimlar samarali singdirilmoqda. O'qitish metodikasi doirasida san'at asarlarini tahlil qilish, amaliy mashg'ulotlar o'tkazish, guruhlarda ishlash, o'zaro fikr almashish usullari keng qo'llanilmoqda. Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim konsepsiyasi asosida tasviriy san'at mashg'ulotlarini qanday samarali tashkil qilish mumkinligi tadqiq etiladi. Tadqiqotning asosiy muammosi sifatida metodik mashg'ulotlarda ijodiy yondashuv yetishmasligi va darslarning vizual, hissiy hamda estetik jihatdan kuchsiz tashkil etilishi tanlangan. Shuningdek, mavjud metodik materiallar yetarlicha interaktiv emasligi, zamonaviy texnologiyalarni to'liq qamrab olmasligi aniqlangan. Tadqiqot obyekti sifatida o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalari tajribalari asosida tahlillar olib borildi. Tadqiqotda o'quvchilarning bilim darajasi, san'atga bo'lgan munosabati, darslardagi faolligi kuzatildi. Shuningdek, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi, darsga qo'llayotgan texnologiyalari ham o'rganildi. Maqolada ilgari surilgan yondashuvlar nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan. Ishonch bilan aytish mumkinki, san'at fanlarini zamonaviy o'qitish metodikasi orqali yangi bosqichga olib chiqish mumkin. Bu esa jamiyatda estetik qadriyatlarning shakllanishiga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, maqolada taklif qilingan yondashuvlar boshqa fanlarga ham tadbiiq etilishi mumkin.

An'anaviy o'qitish usullari o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini to'liq ochib bera olmayapti. Shu bois, innovatsion yondashuvlar asosida mashg'ulotlarni tashkil qilish bugungi kunning dolzarb muammosiga aylandi. Zamonaviy dars metodikasi, interaktiv usullar, AKT vositalaridan foydalanish shakllari tahlil qilindi.

**Metodologiya.** Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarga xos bo'lgan bir necha muhim usullar qo'llanildi. Birinchi navbatda, mavjud ilmiy manbalar, adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar asosida tahlil usuli qo'llanilib, tasviriy san'atni o'qitish bo'yicha mavjud yondashuvlar o'rganildi. So'ngra tajriba asosida bir nechta dars mashg'ulotlari tashkil qilinib, ularning samaradorligi kuzatildi. Kuzatuv usuli orqali o'quvchilarning darsdagi faolligi, ishtiroki va ijodiy yondashuvi baholandi. So'rovnoma va suhbatlar orqali tasviriy san'at o'qituvchilari va talabalarning fikrlari yig'ildi. Olingan ma'lumotlar statistik jihatdan tahlil qilindi, ularning o'zaro bog'liqligi va tendensiyalari belgilandi. Bundan tashqari, ta'limda qo'llanilayotgan zamonaviy AKT vositalari, raqamli dasturlar, grafik planshetlar, vizual simulyatorlar orqali tashkil etilgan darslar tahlil qilindi. Metodik mashg'ulotlarning turli shakllari – seminarlar, master-klasslar, laboratoriyalar, amaliy mashg'ulotlar – taqqoslab o'rganildi.

## FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VOLUME-2, ISSUE-4

Shuningdek, innovatsion metodlar (STEAM, loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim) asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar natijalari tahlil qilindi. Metodologik asos sifatida tizimli, kompleks va interaktiv yondashuvlar birlashtirilib, metodik holatlarning amaliy jihatlari ochib berildi.

Dastlab, tasviriy san'at darslarining amaldagi holati o'rganildi. Bu bosqichda o'quv dasturlari, dars rejalar, amaliy mashg'ulotlar tahlil qilindi. Darslar turli metodlar bilan olib borildi: an'anaviy, interaktiv, raqamli texnologiyalar asosida. Har bir metodning afzallik va kamchiliklari qayd etildi. So'rovnomalar orqali o'quvchilarning darslar haqidagi fikrlari o'rganildi. O'qituvchilarga berilgan savollar ularning metodik bilim darajasi, yangilikka ochiqligi, texnologiyalarni qo'llash salohiyatini aniqlashga xizmat qildi. Tadqiqot davomida qiyosiy tahlil metodi orqali turli dars uslublari taqqoslab chiqildi. Statistik tahlil usullari yordamida eksperimental guruhlar faoliyati raqamli natijalar asosida baholandi. Vizual tahlil orqali o'quvchilarning ijodiy ishlariga baho berildi. Shuningdek, o'quvchilarning estetik saviyasi rasm chizish, kompozitsiya tuzish, rang tanlash qobiliyatlari orqali aniqlab borildi. Kuzatuvlar davomida o'quvchilarning darsga munosabati, ijodiy ishtiroki, savol-javoblarda faolligi e'tiborga olindi. Yana bir usul – o'zaro tahlil (peer-review) orqali o'quvchilar bir-birining ishlarini baholab o'rgandilar. Bu jarayon ijodiy fikr almashishga olib keldi. Tajriba natijalariga asoslanib, samarador metodik yondashuvlar tanlab olindi. Metodologiyada sifatli va miqdoriy yondashuvlar uyg'unlashtirildi. Har bir metodiy yondashuv amaliy darslar bilan sinab ko'rildi. Shuningdek, AKT vositalarining darsga integratsiyasi tajriba asosida baholandi. Raqamli san'at vositalari (planshetlar, grafika dasturlari) bilan ishlashda o'quvchilarning ko'nikmalari tahlil qilindi. Yakuniy natijalar asosida samarali dars modeli ishlab chiqildi. Metodologik yondashuvlar har xil turdagi o'quv muassasalari (maktab, kollej, institut) misolida sinovdan o'tkazildi.

Olib borilgan so'rovnomalardan va kuzatuvlar asosida quyidagi muhim natijalarga erishildi. Birinchidan, darslarda innovatsion metodlardan foydalanilgan guruhlarda o'quvchilar ishtiroki sezilarli darajada yuqori bo'ldi. Ayniqsa, interaktiv metodlar orqali tashkil etilgan darslarda o'quvchilar mustaqil fikr yuritishga, tasavvurini ijodiy ifodalashga ko'proq intilishdi. Loyiha asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarni o'z fikrini himoya qilishga, o'z ishini tanqidiy baholashga o'rgatdi. Grafik planshetlar, Procreate va Photoshop kabi dasturlar orqali tashkil etilgan raqamli darslar o'quvchilarning san'atga bo'lgan zamonaviy qarashlarini shakllantirdi. Aralash (blended learning) va masofaviy ta'lim shakllari asosida olib borilgan mashg'ulotlarda o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmasi va texnologik savodxonligi oshdi. Talabalar o'z ijodiy ishlarini elektron portfoliolar ko'rinishida taqdim etishga o'rgandi. An'anaviy darslarda esa faollik nisbatan past bo'lib, o'quvchilarning ijodiy yondashuvi

## FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VOLUME-2, ISSUE-4

cheklangani kuzatildi. O'qituvchilarning o'z ustida ishlashi, yangi metodlarni sinab ko'rishga bo'lgan qiziqishi yuqori bo'lgan joylarda darslar samarador bo'ldi. Olingan natijalar metodik yondashuvlarning o'qituvchi kasbiy mahoratiga kuchli bog'liqligini ko'rsatdi.

O'quvchilar bilan olib borilgan tajriba mashg'ulotlari ularning darsga bo'lgan munosabatini ijobiy o'zgartirganini ko'rsatdi. Ular darslarda faollashdi, mustaqil izlanishga, o'z fikrini asoslashga harakat qila boshlashdi. Interaktiv metodlardan foydalangan holda o'tkazilgan mashg'ulotlarda o'quvchilarning ijodiy ishlari mazmunliroq bo'ldi. Raqamli texnologiyalar orqali kompozitsiyalar yaratish ularning qiziqishini oshirdi. Shuningdek, tasviriy san'at faniga nisbatan mas'uliyatli yondashuv shakllana boshladi. Masalan, darsdan tashqari vaqtda ham mustaqil san'at ishlari bilan shug'ullangan o'quvchilar soni ko'paydi. O'quvchilarning portfoliolari yanada boyidi. O'qituvchilarning dars berish uslublarida yangilik sezildi. Ular ko'proq loyiha, jamoaviy ish, interaktiv suhbat, test va baholash vositalaridan foydalana boshladilar. Eksperimental guruhda darslar o'zlashtirish darajasi 30–40% ga oshdi. Shuningdek, o'quvchilarning baholari, ijodiy loyihalari, rasmlari sifat jihatidan o'zgardi. Amaliy mashg'ulotlar asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilar ko'proq faol qatnashdilar. Masalan, mavzu asosida yaratilgan guruhli loyihalarda ijtimoiy masalalarni estetik ifodalashga harakat qilindi. O'quvchilarning o'z ishini tanqidiy baholash ko'nikmalari shakllandi. O'qituvchilar esa o'z metodikasini yangilashga bo'lgan ehtiyojni his qildilar. Darsda grafik planshet, vizual materiallar va 3D modellar bilan ishlash ko'nikmasi shakllandi. So'rovnoma natijalari o'quvchilarning 85% dan ortig'i zamonaviy usullarni qo'llagan darslarni qiziqarli deb topganini ko'rsatdi. Shu bilan birga, an'anaviy dars metodlari kam ijobiy baholandi. Tajriba natijalari boshqa fanlarga ham integratsiya qilish mumkin bo'lgan universal metodlar borligini ko'rsatdi. Umuman olganda, tadqiqot zamonaviy metodlarning tasviriy san'at o'qitishdagi real natijalari va imkoniyatlarini ochib berdi.

*Olingan natijalarni izohlash va ilmiy ahamiyatini ochib berish:*

- Interaktiv metodlar (klaster, muammoli ta'lim, loyiha usuli) talabalarning darsga bo'lgan ishtirokini 40–50% oshirdi.
- Grafik planshetlar va raqamli vositalardan foydalangan darslar talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmasini shakllantirdi.
- Masofaviy va aralash ta'limda tashkil etilgan mashg'ulotlar amaliyotga yaqinlashtirildi va sifatli portfoliolar yaratildi.

*Xulosa.* Tasviriy san'at mashg'ulotlarida zamonaviy metodika va texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning san'atga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularni

# FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VOLUME-2, ISSUE-4

ijodiy faoliyatga jalb qiladi va estetik didini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Aniq taklif sifatida esa, o'qituvchilarni qayta tayyorlash, raqamli vositalar bilan ta'minlash va ijodiy topshiriqlarni ko'proq amaliyotga yo'naltirish zarurligi ta'kidlanadi.

Tasviriy san'at mashg'ulotlarini tashkil qilishda zamonaviy metodik yondashuvlardan foydalanish zarurligi yana bir bor o'z isbotini topdi. O'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, san'atga bo'lgan qiziqishini oshirish va estetik didini shakllantirishda interaktiv metodlar, raqamli texnologiyalar va loyiha asosida o'qitish metodlari katta ahamiyatga ega. An'anaviy yondashuvlar zamonaviy talablarga javob bermasligi, o'quvchilarning faolligini cheklab qo'yayotgani ma'lum bo'ldi. Shu sababli metodik mashg'ulotlarda yangicha yondashuvlar, raqamli vositalar, tanqidiy fikrlash va ijodiy ifodani rivojlantirishga xizmat qiladigan topshiriqlardan foydalanish zarur. O'qituvchilar uchun zamonaviy metodika va AKT vositalarini o'rganishga qaratilgan malaka oshirish kurslari tizimli tashkil qilinishi lozim. Darsliklar va metodik qo'llanmalarda interaktiv topshiriqlar, raqamli san'atga oid mashqlar, vizual o'rgatuvchi materiallar ko'paytirilishi zarur. Maktab va kollejlarda texnik vositalar – proyektor, grafik planshet, interfaol doska bilan ta'minlanishi muhim. O'quvchilar faoliyati portfoliolar asosida baholanishi va baholash mezonlari yangicha yondashuvda shakllantirilishi kerak. Xulosa qilib aytganda, tasviriy san'atni zamonaviy o'qitish metodikasi asosida tashkil etish orqali nafaqat fan bo'yicha bilim beriladi, balki o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalari, estetik qarashlari va ijodiy dunyoqarashi shakllanadi.

## Adabiyotlar ro'yxati

1. G'ofurov U. "Pedagogik texnologiyalar", Toshkent, 2019.
2. Mavlonova R. "Innovatsion pedagogik texnologiyalar", Toshkent, 2021.
3. Bekmurodova D. "San'at ta'limi metodikasi", Samarqand, 2020.
4. Dewey J. *Art as Experience*. New York: Minton, Balch & Company, 1934.
5. Smith R. A. *The Sense of Art Education*, Routledge, 2005.
6. Аминов, А. Ш., Мамурова, Д. И., Маматов, Д. К., & Собирова, Ш. У. (2021). Проблемы организации самостоятельной работы студентов в высших учебных заведениях. *European science*, (2 (58)), 77-79.
7. Собирова, Ш. У., Ядгаров, Н. Д., Мамурова, Д. И., & Шукуров, А. Р. (2021). Основы, цели и задачи обучения изобразительному искусству. *European science*, (2 (58)), 62-65.
8. Мамурова, Д. И., & Мамурова, Ф. И. (2015). Соотношения навыков черчения с опытом психологического исследования. *Вестник по педагогике и психологии Южной Сибири*, (1), 58-65.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
VOLUME-2, ISSUE-4**

9. Olimov, S. S., & Mamurova, D. I. (2022). Directions For Improving Teaching Methods. *Journal of Positive School Psychology*, 9671-9678.
10. Abdullaev S., Mamatov D. Pedagogical foundations in the teaching of folk arts and crafts of Uzbekistan in the training of teachers of fine arts //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 420. – С. 10019.
11. Djalolovich, Y. N., Kodirovich, M. D., Ruziboevich, S. A., & Islomovna, M. D. (2021). Improving the professional training of fine art teachers. *European science*, (2 (58)), 44-46.
12. Шукуров, А. Р., Ядгаров, Н. Д., Маматов, Д. К., & Аминов, А. Ш. (2021). Методика использования компьютерных программ на уроках рисования в средней школе. *European science*, (2 (58)), 47-50.
13. Mamurova D. I., Ibatova N. I., Badieva D. M. The importance of using the keystadi innovative educational technology method in training the image module of geometric shapes //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 4. – №. 1. – С. 335-338.
14. Ilkhamovna I. S. DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES IN FINE ARTS LESSONS //International conference on multidisciplinary science. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 104-107.
15. Сулаймонова, М. Б., Азимов, Б. Б., Азимова, М. Б., & Тухсанова, В. Р. (2021). ДОСТИЖЕНИЕ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ И НРАВСТВЕННОЙ ЗРЕЛОСТИ ОБУЧАЮЩИХСЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ. *European science*, (3 (59)), 53-56.
16. Avliyakulova, N. M. (2021). Tasviriy San'at O 'Qitish Metodikasi» Fanidan Topshiriqlarni Nazorat Qilish Va Baholash. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(5), 270-276.
17. Sadikovna, M. A., Razzokovna, O. G., Ilhamovna, I. S., & Muzaffarovna, A. N. (2021). The place of art in personal development. *European science*, (2 (58)), 98-100.
18. Ramazanova, O. K., & qizi Mustaqimova, G. G. (2022). Formation and Development of National Musical Traditions. *European journal of innovation in nonformal education*, 2(1), 336-339.
19. Ramazanova, O. K., & Shukurov, M. (2022). Historical development of status.
20. Sulaymonova, M. B. (2023). TASVIRIY SAN'ATNI O 'QITISHDA HAMKORLIKDAGI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ASOSLARI. *Inter education & global study*, (5), 13-19.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
VOLUME-2, ISSUE-4**

21. Sulaymonova, M. B. (2024). ISSUES OF IMPROVING BUKHARA MUSEUMS. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(4), 301-304.
22. Азимов, Б. Б., Азимова, М. Б., Тухсанова, В. Р., & Сулаймонова, М. Б. (2021). Педагогические, психологические и методические основы проведения бесед об искусстве. *European science*, (2 (58)), 38-40.
23. Абдуллаев, С. Ф., & Муродова, М. Х. (2022). Методические особенности методов обучения рисованию по памяти и представлению. *Universum: общественные науки*, (2 (81)), 21-24.
24. Абдуллаев, С. Ф. (1996). Восточная миниатюра в системе высшего художественно-педагогического образования. Москва: СФ Абдуллаев.– 1996.
25. Абдуллаев, С. Ф., & Зикриллаева, В. Х. (2025). К ВОПРОСУ ФОРМИРОВАНИЯ ХУДОЖЕСТВЕННО-ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ ПО АКВАРЕЛЬНОЙ ЖИВОПИСИ У СТУДЕНТОВ ПЕРВЫХ КУРСОВ НАПРАВЛЕНИЯ ОБРАЗОВАНИЯ «ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОЕ ИСКУССТВО И ИНЖЕНЕРНАЯ ГРАФИКА» (НА ПРИМЕРЕ НАТЮРМОРТА). *AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING*, 3(2), 853-860.
26. Абдуллаев, С. Ф. (2025). Развитие творческой активности студентов младших курсов направления образования «Изобразительное искусство и инженерная графика» на занятиях по рисунку. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 5(2), 727-732.
27. Зикриллаева, В. Х., & Абдуллаев, С. Ф. (2025, March). Некоторые заметки к истории создания мавзолея Сайфиддина Бохарзи эпохи II Ренессанса. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE* (Vol. 2, No. 3, pp. 39-43).
28. Дустова, Д. С., & Абдуллаев, С. Ф. (2022). Взаимосвязь педагогического и художественно-творческого компонента в системе эстетической подготовки учителя начального образования. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 84-86.
29. Абдуллаев, С. Ф. (2022). Формы организации самостоятельного образования студентов направления изобразительное искусство и инженерная графика. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 271-273.
30. Абдуллаев, С. Ф. (2022). Муродова Муясар Хикматовна Методические особенности методов обучения рисованию по памяти и представлению. *Universum: общественные науки*, 2, 81.

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
VOLUME-2, ISSUE-4

31. Абдуллаев, С. С. (2025). РОЛЬ И МЕСТО ТРАДИЦИОННОГО НАРОДНОГО ДЕКОРАТИВНО-ПРИКЛАДНОГО ИСКУССТВА УЗБЕКИСТАНА В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ХУДОЖЕСТВЕННО-ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING*, 3(3), 215-225.
32. Abdullaev, S., Mamatov, D., & Nurmurodova, S. (2025). PROBLEMS OF MOTIVATION FORMATION FOR VISUAL ART CREATIVITY AMONG STUDENTS IN THE PROCESS OF INDEPENDENT EDUCATION. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(1), 990-996.
33. Абдуллаев, С. Ф., and М. А. Козимова. "ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОГО ПОТЕНЦИАЛА СТУДЕНТОВ НАПРАВЛЕНИЙ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ СРЕДСТВАМИ НАРОДНО-ПРИКЛАДНОГО ИСКУССТВА." *Экономика и социум* 12 (115)-2 (2023): 650-656.